

O'SMIRLIK YOSHIDAGI PSIXOLOGIK-FIZIOLOGIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING O'ZIGA XOSLIKHLARI

*Qidirova Gulsora Axmadjonovna
Namangan viloyati Namangan shahar
MMTB ga qarashli 11-umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilarning fiziologik-psixologik o'zgarishlari, o'tish davridagi qiyinchiliklari va inqiroz davrining o'ziga xos namoyon bo'lishi va ular bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik korreksion ishlar haqida fikr mulohazalar keltirib o'tilgan. Bu jarayonda psixologlar o'smir yoshidagi o'quvchilarini eng adekvat va o'ziga xos hollarda o'zlarini tutishlari va xarakter xususiyatlarini o'rganib taxlil qiladilar. O'smir yoshidagi o'quvchilar bilan munosabatlarni shakllantirishning o'ziga xos usul va metodlari haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik yoshi, o'tish davri, yosh hususiyatlari, ijtimoiy vaziyat, samarali harakat, psixologik kompensatsiya, o'smirlik yoshi, impulsiv istaklar.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadryatlarga hamda ilmi, texnikasi va g'oyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim-tarbiya mezonini barpo etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan shunday bir davrda ta'lim tarbiya jarayonini zamonaviy g'oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki o'sib kelayotgan har bir bola o'ziga xos qiziqish va ishtiyoq bilan o'sib ulg'aymoqda. Zamonaviy o'qitish g'oyasida o'quvchilarga quyidagi yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi: tafakkur jarayonlari; sezgi va idrokiga; xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatish usullarini o'zida mujassam etadi. Rivojlangan mamalakatlar ta'lim tizimida innovatsion g'oyalar keng qo'llaniladi. Tarbiyalash g'oyasi yoshlar bilan ta'limiy va tarbiyaviy ishlashning samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Innovatsion g'oyalar ta'lim-tarbiya jarayoning bir tizimga solingan ilmiy nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va metodlari majmuidir. Bugungi kunda maxoratli pedagog-psixologlar innovatsion g'oyalardan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

Hayotiy ko'nikmalar psixologiya kompetensiyaning asosidir. Psixologik kompetensiya - bu shaxsning kundalik hayotda samarali harakat qilish, uning talablari va o'zgarishlariga javob berish qobiliyati. Bu aqliy faoliyatning yaxshi darajasini saqlab qolish va turli vaziyatlarda boshqa odamlar bilan muloqot qilishda adekvat bo'lish qobiliyatidir. Psixologik kompetensiya bu jismoniy, ruhiy va ijtimoiy

farovonlikning asosidir. Shuning uchun ham psixologik kompetentsiyani rivojlantirishni eng muhim psixologik vazifalardan biri deb hisoblash mumkin. Bunga maktabda bolalar va o'smirlarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali erishish mumkin. O'smirlik davrida quyidgi o'zgarishlar o'ziga xos o'rinni egallaydi:

1. Bu jiddiy og'irlashgan ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq: oila poydevorining buzilishi, oilalarning mutlaq ko'pchiligining turmush darajasining pasayishi, jinoyatchilikning ko'payishi, o'smirlarning giyohvandlikka tushib qolish xavfi va boshqalar. O'smirlarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish ularga bunday muammolarni engishga yordam beradi.
2. Bundan tashqari, bunday mashg'ulotlarni imkon qadar erta, hatto o'smirning g'ayrioddiy xulq-atvor munosabatlarini o'zlashtirmasdan oldin amalga oshirish kerak. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish sog'lom turmush tarziga, shaxslararo ijobiy munosabatlarga, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga olib keladigan qobiliyatlarni egallash va rivojlantirishga yordam beradi. O'smir yoshidagi o'quvchilar bu katta odam ham emas, yosh bola ham emas ularga tanqidiy nazarda oxangda garirish va ularga nisbatan qo'pol muomalada bo'lish noto'g'ri hisoblanadi. Bu aynisa pedagogik jarayonda yaxshi natija bermaydi. Chunki bu davrning eng muhim o'ziga xos xususiyati bu qo'zg'aluvchanlikning haddan tashqari ortib ketishi bilan xarakterlanadi. Shunday ekan har bir psixolog va maktab o'qituvchilarni o'smir yoshdagagi o'quvchilar bilan to'g'ri samimi hamda do'stona munosabatda bo'lishlari, o'quvchilarning bajargan ishlarini rag'batlantirishlari kerak. Chunki bu o'quvchilarga motivatsiya beradi. O'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi

XULOSA O'smirlik yoshi xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma'naviy e'tiqod, prinsip qoida, idealarining, baholash mulohazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshi davrida u yoki kattalarning, ya'ni o'qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko'rsatmalari bilan, yoki o'zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta'siri bilan harakat qilgan bo'lsa, endilikda uning uchun o'z xatti-harakatlarining prinsipi, o'zining qarashlari va e'tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning psixologlar shuni e'tiborga olishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yganlar. Tadqiqotlar umuman o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlarga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishni oilada ota-onalarning maktablarda boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G. G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999 yil

2. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
3. Tojiyev, Salaxutdinov R, Barakaev M, Abdalova S, Talim jarayonida zamonaviy axborot g'oyalari. T.: 2000
4. E.G'oziev.Umumiyl psixologiya. Toshkent "O'qituvchi" 2010 y.
5. N.Xo'jaev va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007.